

**TASVIRIY SANAT DARSLARIDA ANIMALISTIK JANRDA TASVIR CHIZISH
QOBILIYATINI O`QUVCHILARDA SAMARALI SHAKLLANTIRISHDA FIN
MOTORIKANI RIVOJLANTIRUVCHI AMALIY MASHG`ULOTLAR**

Ermurodov Dilmurat Xushvaktovich

Qarshi shahar 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi

"Tasviriy san'at va chizmachilik" fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada tasviriy san'at darslarida animalistik janrni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning fin motorika ko'nikmalarini shakllantirishning uslubiy asoslari va amaliy mashg'ulotlari tahlil qilinadi. Mazkur jarayonning psixofiziologik va didaktik xususiyatlari ochib berilgan holda, tasviriy san'at faoliyatida qo'llaniladigan metodik yondashuvlar hamda mashg'ulot shakllari yoritilgan. Shuningdek, fin motorikani rivojlanishish orqali bolalarda hayvonot olami obrazlarini aniq va ifodali aks ettirish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: animalistik janr, tasviriy san'at, fin motorika, boshlang'ich ta'lim, badiiy qobiliyat, amaliy mashg'ulotlar.

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tasviriy san'at darslari nafaqat estetik tarbiya manbai, balki psixomotor ko'nikmalarni rivojlanishuvchi muhim pedagogik jarayondir. Shu bois, maktab dasturlarida rasmning turli janrlarini o'zlashtirish orqali o'quvchilar tafakkuri va nozik motorikasi uyg'un rivojlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Animalistik janr – ya'ni hayvonot olamini tasvirlash – bolalar dunyoqarashini kengaytirish, ularning kuzatuvchanlik, aniqlik va ijodiy tasavvur qobiliyatini rivojlanishning samarali vositalaridan biridir [1]. Ushbu jarayonni yuqori samaradorlik bilan amalga oshirish uchun tasviriy san'at faoliyati maxsus mashg'ulotlar va o'yinli metodikalar yordamida bolalarning fin motorikasini muntazam rivojlanishib borishni talab etadi.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda hayvonlarni tasvirlash jarayonida bir qator psixomotor va idrok etish bosqichlari birgalikda shakllanadi: kuzatish, fazoviy tasavvur qilish, obrazni bo'laklarga ajratish va uni qog'ozga ko'chirish. Shu sababli o'qituvchi animalistik janrni o'rgatishda oldindan rejalshtirilgan, ketma-ket murakkablikka ega amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqishi lozim.

Fin motorikani rivojlanishiga xizmat qiladigan mashg'ulotlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi [2]:

Kontur va siluet asosida mashq qilish

Bolalarga avvalo sodda shakllardagi hayvonlar konturini bo'yash va siluetini ajratish vazifasi beriladi. Kontur bo'yicha qalamni yuritish, chegaralardan chiqmaslik, shaklni to'liq to'ldirish fin motorikani mashq qilishning boshlang'ich bosqichidir. Masalan, quyon, mushuk, qush kabi obrazlarni qalin chiziqlar asosida bo'yash jarayonida barmoqlar harakati aniq nazoratga olinadi.

Bo‘laklarga ajratib chizish

Animalistik tasvirning murakkab elementlarini – tana, bosh, oyoq, dum – qismlarga ajratib chizish mashqi o‘quvchilarni tafsilotga e’tiborli bo‘lishga o‘rgatadi. Bu jarayon nafaqt tasviriy san’at malakasini, balki bilakdagi mushak kuchi va koordinatsiyani mustahkamlaydi.

Shtrixlash va tekstura yaratish

Qush patlari, hayvon junlari, teri yuzasi shaklini chizishda shtrixlash mashqlari qo‘llaniladi. Masalan, qalamni engil va kuchli bosib, chiziqlar zichligini o‘zgartirish orqali matnli yuzalarni aks ettirish jarayoni barmoq elastikligi va chizish aniqligini oshiradi.

Noan’anaviy texnika bilan ishslash

Guash, akvarel, rangli qog‘oz va plastilin bilan ishslash fin motorikani turlicha faollashtiradi. Masalan, “kaft bosib iz qoldirish” usulida kaft bo‘yog‘i bilan hayvon siluetini chizish, keyin uni qalam yordamida to‘ldirish bolada ko‘z-va-qafat koordinatsiyasini rivojlantiradi.

Harakatli obraz yaratish

Hayvonlarning harakatini aks ettirish – masalan, qushning uchishi, itning yugurishi – bolaning obrazli tafakkurini va dinamika sezgisini rivojlantiradi. Harakatli obrazlarni chizish vaqtida bolalar qalamni to‘xtatmasdan ritmik chizishga o‘rganadi.

Mashg‘ulotlarni o‘yin shaklida tashkil etish

Animalistik janrni o‘rganishda “Kim tezroq tanib chizadi?”, “Siluetni top va bo‘laqlarga ajrat” kabi o‘yinli mashg‘ulotlar motivatsiyani oshiradi va charchoqni kamaytiradi [3].

Shuningdek, fin motorikani shakllantirishda individual yondashuv muhim. Har bir bolaning mushak kuchi, aniqlik va ritmga ko‘nikish darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Shu bois topshiriqlar ketma-ket murakkablashtiriladi: dastlab oddiy shakllar, keyin detallar ko‘paygan obrazlar ishlanadi.

Animalistik janr orqali bolalarda nafaqt badiiy qobiliyatlar, balki atrof-muhitga mehr, hayvonot olamiga qiziqish, mustaqil kuzatuvchanlik va ifodaviy nutq rivojlanadi. Har bir mashg‘ulot oxirida bolaning ishi muhokama qilinib, qaysi texnik elementlar yaxshi chiqqani va qaysi jihatlar ustida ishslash kerakligi tushuntiriladi [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Animalistik janr bo‘yicha tasviriy san’at darslarida fin motorikani rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar bolaning umumiy psixofiziologik va badiiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Sistemali mashqlar nafaqt qo‘l mushaklarini chiniqtiradi, balki o‘quvchilarni aniqlikka, tafakkur va his-tuyg‘u uyg‘unligida ijod qilishga o‘rgatadi. Shu bois, boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at faoliyatini metodik jihatdan puxta rejalashtirish va har bir bolaning qobiliyatlarini hisobga olib olib borish pedagogik samaradorlikni oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xasanova, M. X. Bolalar tasviriy san’atining rivojlanish bosqichlari / M. X. Xasanova. — Toshkent : Fan va texnologiya, 2021. — 192 b.
2. Jabborova, Z. N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nozik motorikani rivojlantirish metodikasi / Z. N. Jabborova. — Toshkent : O‘qituvchi, 2020. — 156 b.
3. Axmedova, S. Tasviriy san’at orqali bolalarda motorikani shakllantirish / S. Axmedova // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. — 2022. — №3. — B. 66–72.
4. Montessori, M. Bola ongingin siri / M. Montessori; M. Aripova tarjimasi. — Toshkent : Ilm Ziyo, 2015. — 176 b.